

← Новости_образования
_исследование_в_XX...

Теги +



3

Международный научный журнал
«Новости образования: исследование в XXI веке»

№ 13 (100), часть 1
Сентябрь, 2023

СОДЕРЖАНИЕ:

Название научной статьи, ФИО авторов	Номер страницы
BOLALARDA POLIMIYELIT KASALLIGI KELIB CHIQISHI Zokir Amanovich Safarov Zayniddinov Muhiddin Salohiddinovich	7
GEPATT A KASALLIGI PATOLOGIYASI Zokir Amanovich Safarov Zayniddinov Muhiddin Salohiddinovich	10
YUQUMLI KASALLIKLAR PATOLOGIYASI RIVOJLANISHI, OLDINI OLISH CHORA TADBIRLARI Zokir Amanovich Safarov Zayniddinov Muhiddin Salohiddinovich	15
THE TERMINOLOGY OF PHILOSOPHY AND ITS EMERGENCE IN LINGUISTICS Islom Boynazarov	19
SIGIRLARDA MASTIT KASALLIKLARINI KELIB CHIQISH SABABLARI VA DIAGNOSTIKASI Djumanov.S.M	22
ACUTE RESPIRATORY INFECTIONS IN FREQUENTLY ILL CHILDREN Imamova Akida Obidjon qizi	27
КЛИНИКО-ИММУНОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА МИКОПЛАЗМЕННОЙ ПНЕВМОНИИ У ДЕТЕЙ Набиева Зумрат Тухтаевна	32
БАДИЙ ЯХЛИТЛИКНИ ТАЪМИНЛАШДА ИЖОДКОР МАҲОРАТИ Тлеуниязова Г.Б	37
METHOD FOR REGENERATION OF FREE CYANIDE BY SELECTIVE OXIDATION OF THIOCYANATES Jadilova Dilnavoz Abdulazizovna Shonazarova Shahnoza Isakulovna	40
МАКТАВ DARSLIKLARDA TEXNOLOGIK TA'LIM FANINING AHAMIYATI VA DOLZARBLIGI Mahmudova Mashhura	44
BADIY ADABIYOTNING BOLALAR TARBIVASIDAGI ROLI VA AHAMIYATI Fayziyeva Shamsiya Bekmirzo qizi	49
JOY NOMLARI ASOSIDA SHAKLLANGAN TOPONIMLAR.(BUXORO VILOYAT VOBKENT TUMAN MISOLIDA) M.O.Xayrullayeva	52
RAHBAR XODIMLARINING KOMPETENTLIGINI VA MAHORATI Xayitov Qobil Qurbonovich	58
BUYUK GEOGRAFIK KASHFIYOTLAR VA ULARNING USMONIYLAR SALTANATIGA TA'SIRI Mo'minova Gulchehrabonu	61
NAVOIY KON METALLURGIYA KOMBINATI Turaqulova Ozoda Hamza qizi	63
AVTOTRANSPORT VOSITALARINI KIBERHUUJMLARDAN HIMOYA QILISH BO'YICHA YO'L XARITASI Abduraximov Ozodbek Azimjon o'g'li Tojiddinov Azizbek Ilhomjon o'g'li Nazirjonov Ubaydulloh Nozimjon o'g'li	66
XITOZAN HOSILALARINING TIBBIYOTDA QO'LLANILISHI	71

4

JOY NOMLARI ASOSIDA SHAKLLANGAN TOPONIMLAR.(BUXORO VILOYAT VOBKENT
TUMAN MISOLIDA)

M.O.Xayrullayeva

(BuxDU tilshunoslik kafedrası o'qituvchisi)

Annotatsiya: *Toponimiyada bir obyektning atoqli oti bilan boshqa bir obyektni ham atash, ya'ni obyektlar nomining biridan ikkinchisida ko'chishi, aniqrog'i, toponimdan toponim hosil qilish ma'lum darajada keng tarqalgan xarakterli hodisadir. Bunday nomlar negizida toponim yotsa, ya'ni toponimdan toponim hosil qilinsa, toponimlar deb yuritiladi. Boshqacha aytgandanda toponim toponimik negizidan hosil bo'lgan toponimdir.*

Tayanch tushunchalar: *toponim, konversiya, kat, topoaffiks, derevat*

Toponimning yangi, qo'shimcha vazifaga o'tishi, asosan, onomastik konversiya – nomni funksional ko'chirish orqali yuz beradi.

Topotoponimlarning hosil bo'lishida ikki xil jarayon yorqin ko'zga tashlanadi: 1. Yonma-yon yaqin joylashgan obyektlarning nomi biridan ikkinchisiga o'tadi.

2. Uzoq joylashgan obyektlarning nomi bir-biriga o'tadi. Toponimlarning hosil bo'lish qonuniyatlari hali toponimiyada yaxshi o'rganilgan emas. Bunga sabab nom ko'chishi murakkab jarayon bo'lsa, ikkinchidan, biridan ikkinchisiga o'tgan nomlarning qaysi biri dastlabki nom ekanini aniq belgilashni talab qiladi.

Shunday qilib, Vobkent tuman toponimiyasining bir qismini turli toponimlar tashkil qiladi. Bu toponimlar uchun turdosh otlar bilan birga atoqli otlar ham toponegizlik vazifasini bajargan.

Gap bir nom bir necha obyektlarning atoqli oti bo'lib kelishi ustida ketar ekan, jahonda shariflik unvoniga sazovor bo'lgan Buxoro toponegizining faqatgina bizning viloyatimizda quyidagi obyektlar nomi bo'lib kelishini va bu nom haqida alohida to'xtab o'tishni lozim deb bilamiz. E'tibor bering:

Buxoro – viloyat nomi;

Buxoro – tuman nomi;

Buxoro – Qorako'l, Kogon tumanlaridagi jamoa xo'jaligi nomi;

Buxoro – shahardagi katta kinoteatr nomi;

Buxoro – viloyat futbol kamandasini nomi va hokazolar.

Darhaqiqat, Buxoro – O'rta Osiyoda eng qadimiy shaharlardan birining nomi bo'lib, uni qadrlash davr talabidir.

Buxoro atamasi haqida bildirilgan fikrlarni tahlil etar ekanmiz, avvalo, uning *Numijkat, Bumiskat, Navmichkat, Buxoro* tarzida atalganini, jumladan, *Navmichkat* – uch so'zdan iborat bo'lib, ma'nosi "Nav" forscha – yangi, "mich" sug'diy – "qal'a", "istehkom", "kat" – qishloq, ya'ni *Navmichkat*– "yangi qal'a", "yangi shahar", "yangi mustahkamlangan qishloq" ma'nosini berishiga e'tibor qaratamiz.

Manbalarda hozirgi ark turgan erda bir qal'a, shahriston va Miri Arab madrasalari o'rnida bir-biriga ro'para yana ikkita qal'a bo'lganligi, keyinchalik ana shu uchta qal'a, ya'ni *Farobdiz, Buxor, Navmichkat* qo'shilib ketganligi qayd etilgan¹.

Qadimgi Buxoroning nomlari orasida eng mashhuri "Buxoro"dir. Bu toponimning ma'nosi xususida ham xilma-xil fikrlar mavjud. Jumladan, mashhur sharqshunos olim, akademik V.Bartold bu atamani qadimiv hind tili. sanskritcha "Vixara" – ibodatxona



Добавить



Редактировать PDF



Поделиться



В Word



Ещё





Новости_образования _исследование_в_XX...

Теги+



Международный научный журнал
«Новости образования: исследование в XXI веке»

№ 13 (100), часть 1
Сентябрь, 2023

Manbalarda hozirgi ark turgan erda bir qal'a, shahriston va Miri Arab madrasalari o'rnida bir-biriga ro'para yana ikkita qal'a bo'lganligi, keyinchalik ana shu uchta qal'a, ya'ni Farobdiz, Buxor, Navmichkat qo'shilib ketganligi qayd etilgan¹.

Qadimgi Buxoroning nomlari orasida eng mashhuri "Buxoro"dir. Bu toponimning ma'nosi xususida ham xilma-xil fikrlar mavjud. Jumladan, mashhur sharqshunos olim, akademik V.Bartold bu atamani qadimiy hind tili, sanskritcha "Vixara" – ibodatxona (monastir) yoki budda dini rohiblari yig'iladigan joy tarzida izohlaydi. A.Muxammadjonov esa uni so'g'dcha "Bug" – tangri, "oro" – "jamoli", ya'ni "Tangri jamoli" tarzida izohlaydi².

Muhammad G'iyosiddinning "G'iyos ul-lug'oti"da "Buxoro" atamasiga izoh beril³ Turondagi qadimgi shaharning nomi ekanligi, uning ma'nosi "ilm, ilm makoni" demako. deyiladi⁴.

53

Buxoro atamasi etimoni bilan bog'liq bir qator nomlar bo'lib, ular sirasiga *An, Ansi, Ango, Nyumi, Buxo, Buxe, Buxaer, Fuxo Puxalo, Buxalo* va boshqalarni kiritish mumkin⁴. Bunday xilma-xil nomlar xitoycha talaffuz oqibatida paydo bo'lgan. Ularning ba'zilari nafaqat shahar, balki hukmdor nomini ham anglatgan. Jumladan, *An* yoki *Buxo* mulki o'rta asrlarda *Nyumi* nomi bilan yuritilgan. *Nyumi* Buxoro shahrining mahalliy nomi Numijkatning xitoycha aytilishidir. Arablar tomonidan Buxoro atamasi o'rnida "Madinat as-Sufriya", ya'ni "Mis qo'rg'on, Mis shahri" kabilar ham qo'llangan. SHuningdek, arablarning Buxoroga bergan sifatlardan biri "Foxira"dir. Uning ma'nosi "Faxrli shahar" bo'lib, islom dinini targ'ib qilishda shahid ketganlar sharafiga shu nom bilan atashgan, degan fikr mavjud. Xalqaro savdo-sotiq rivojlangan, ko'plab karvon saroylarida dunyoning turli mamlakatlardan kelgan savdogarlarni ko'rib, arablar shaharni "Madinat at-tujjor", ya'ni "Savdogarlar shahri" deb ham atashgan⁵.

Shunday ekan, Buxoro o'lkamizning yillar davomida jahon tafakkuri ma'naviy, madaniy, va diniy qadriyatlarini taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shib kelayotgan, shariflik nomiga sazovor bo'lgan muqaddas joylarimizdan biridir.

Uning toponimiyasini har tomonlama o'rganish nafaqat lingvistik tadqiqotlar uchun, balki Vobkent tumani tarixi va madaniyatini chuqur o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbek tilidagi so'z yasaliş usullari toponimlarda ham ishtirok etadi. Ammo joy nomlarini so'z yasaliş jihatdan tekshirar ekansiz, avvalo, atoqli otlarning o'ziga xos bir qator semantik va grammatik xususiyatlarini e'tiborga olmoq zarur bo'ladi.

Ayrim tilshunolar toponimlarning o'ziga xos tomonlarining mavjudligini, ularning ma'lum funksional sferaga ega ekanligi, qo'llanish jihatdan maxsuslanganligi kabi xususiyatlarini qayd qilgan edilar. Darhaqiqat, leksemalar toponimga aylangach, ularda qator o'zgarishlar yuz beradi, jumladan ular kategoriya jihatdan o'zgaradi, (boshqa leksik

¹ Бухоро – Шарқ дурдонаси. – Тошкент: Шарқ, 1997. – Б. 22-28.

² Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 2-килад. – Тошкент: "Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси" Давлат нашриёти, 2001. – Б. 282.

³ Мухаммад Гийосиддин. Гийос ул-лугот. Жилд 1. – Душанбе: Нашриёти "Адиб", 1987. – Саҳ. 119-120.

⁴ Бухоро – Шарқ дурдонаси. – Тошкент: Шарқ, 1997. – Б. 28.

⁵ Болтаев Ш. "Бухоро" топоними ҳақида. Бухоро топонимлари (тарихий-этимологик очерклар). – Бухоро, 2008. – Б. 8.

Международный научный журнал
«Новости образования: исследование в XXI веке»

№ 13 (100), часть 1
Сентябрь, 2023

grammatik gruppaga o'tadi), sintaktik holatida o'zgarish sodir bo'ladi, semantik jihatdan ham o'zgarishga (ma'no maxsuslanishiga) uchraydi. Shuningdek, ularning formal-morfologik xususiyati ham o'zgaradi. Bu momentlar, shubhasiz, toponimlar yasalişda, ularning yasalganligini belgilashda muhim rol o'ynaydi. Toponim yasalişhi bilan ko'pgina umumiy tomonlarga ega bo'lsa ham, ayni vaqtda toponim yasalişhi xususiy belgilarga ham egadir.

Keyingi yillarda o'zbek tilshunosligida toponimlarning yasalişhi va ularning morfologik strukturasi o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlarda, shuningdek, turli tumanlarning



Добавить



Редактировать PDF



Поделиться



В Word



Ещё





грамматик gruppaga o'tadi), sintaktik holatida o'zgarish sodir bo'ladi, semantik jihatdan ham o'zgarishga (ma'no maxsuslanishiga) uchraydi. Shuningdek, ularning formal-morfologik xususiyati ham o'zgaradi. Bu momentlar, shubhasiz, toponimlar yasashda, ularning yasalganligini belgilashda muhim rol o'ynaydi. Toponim yasalishi bilan ko'pgina umumiy tomonlarga ega bo'lsa ham, ayni vaqtda toponim yasalishi xususiy belgilarga ham egadir.

Keyingi yillarda o'zbek tilshunosligida toponimlarning yasalishi va ularning morfologik strukturasi o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlarda, shuningdek, turli tumanlarning toponimlari tekshirilgan dissertatsiyalarda toponim yasalishining ikki yo'li affiksatsiya va kompozitsiya usullari qayta – qayta qayd etildi. Ko'pgina toponimik medallar hamda toponim yasovchi affiksalar tavsiflandi. Deyarli barcha dissertatsiyalarda -lik, -chi, -li, -lar kabi ko'plab qo'shimchalar toponim yasovchi sifatida izohlanadi. Ayrim tadqiqotlarda -kr -kash kabi qo'shimchalar ham toponim yasovchi affiksalar qatoriga kiritiladi. Ammo su

54

yasalishi nuqtayi nazaridan qayd etilgan affiksalar qatnashgan barcha toponimlarni ham affiksatsiya usuli bilan yasalgan deyish mumkin emas. Misollarga murojaat etaylik: -lik affiksi orqali; Bazzozlik, Ko'pchilik, So'kfurushlik (Sh.Qodirova), Zargariik, Ishgariik (T.Nafasov), Beshyillik, Azatlik, Tenglik, Hurlik, Birlik, Shodlik (L.Karimova, N.Oxunov).

So'z yasash strukturasi hamma vaqt yasovchi va yasamaning semantik morfologik munosabati bilan belgilanar, qismlar orasidagi assostiativ aloqa sezilib turishi lozim deb qaralar ekan, keltirilgan bu toponimlarning birortasini ham – lik affiksi orqali yasalgan deb bo'lmaydi. Chunki toponimlar, yuqorida ta'kidlaganimizdek, o'ziga xos bir qator leksik – grammatik belgilarga egadir.

Aslida hur yoki bazzoz so'zidan boshqa yasama so'z hosil bo'ldi, ya'ni bazzozlik va hurlik leksemalari vujudga keldi. Buni so'z yasalishi strukturasi zaminida izohlasak, hur-yasovchi, hurlik yasamadir. Ammo hali bu so'zlar toponimlarga aylangani yo'q. Bazzozlik va hurlik so'zlarining bu holati ularning toponimgacha bo'lgan ko'rinishidir. Bu so'zlar toponimga aylangach, ularning strukturasi qator o'zgarishlar sodir bo'ladi. Avvalo, bu leksemalar ma'lum obyekt bilan bog'lanadi va ushbu obyektiv ifodalash uchun maxsuslanadi. Leksemalarning toponimga aylangunga qadar bo'lgan ma'nosi ikkinchi planga tushadi. Leksema toponimga aylangach uning asosiy funksiyasi ma'lum obyektning xuddi shunday boshqa obyektidan farqlashdan iborat bo'ladi. Shunday ekan, bu holatlar bilan bog'liq holda uning formal-morfologik xususiyati o'zgaradi. Shuning uchun ham A.V.Superanskaya tilning lug'at tarkibini ikki qismga: maxsus va umumiy qismlarga ajratgan edi. Darhaqiqat, leksema va toponimni bir qatorga qo'yish mumkin emas. Chunki lug'at tarkibining umumiy qismi kishilar aloqasining barcha turlari uchun qo'llanila oladi. Ammo uning toponimlari ham o'z ichiga olgan maxsuslangan qismi o'zining funksional sferasi va lingvistik vazifasi jihatdan cheklangan. Ko'rinadiki, toponimlarni yasalishi jihatdan tekshirganda ularning toponimlarga aylangunga qadar bo'lgan ma'nosi va toponimik ma'nolarini farqlash kerak bo'ladi. So'z yasalishi strukturasi yasovchi-yasalma munosabati, toponim yasalishida toponimik ma'no va toponimga aylangunga qadar bo'lgan ma'nolar munosabatida aks etadi. Garchi yuqorisidagi konkret misollardan kelib chiqadigan

54

bo'lsak, Bazzozlik, Hurlik va boshqa toponimlarning toponimga aylangungacha bo'lgan ma'nosi bazzozlik, hurlik kabi leksemalarning ma'nolari orqali konkretlashadi. Shunday ekan, yuqorida keltirilgan toponimlar -lik affiksi orqali hosil qilingan emas, balki bazzozlik, hurlik so'zlarining toponimga ko'chishi natijasida vujudga kelgan. Demak, bu o'rinda toponimlarning affiksalar yasalishi emas, balki toponim yasalishining boshqa bir usuli bilan to'qnash kelyapmiz. Toponim yasalishining leksik-grammatik xarakterdagi bu usulini apellyativning toponimizatsiyalashuvi yoki onomastik konversiya deb yuritish mumkin.

Yasalganlikni belgilashning umumiy qoldasi onomastik konversiyada ham saqlanadi. Bunda ham so'z yasalishidagi singari yasashga asos bo'lgan element (yasovchi) va yasali



Добавить



Редактировать PDF



Поделиться



В Word



Ещё





Новости_образования _исследование_в_XX...

Теги+



element-yasovchi, ikkilamchi (yoki ikkinchi) element-yasalma.

Onomastik konversiya orqali toponimlar yasalganda, leksema o'z funksiyasi, sintaktik qurshovini o'zgartirish bilan birga o'z paradigmasini ham o'zgartiradi.

Toponimlarning yasalganligini belgilashda ushbu mamentlarni e'tiborga olish, ayni paytda, ularning morfologik strukturasi belgilashda ham muhim ahamiyatga egadir.

Toponim yasalishidagi leksik-grammatik xarakterdagi yasaliş bilan affiksatsiya usulida yasalişini aralashtirish ko'p hollarda toponimlar motivlarini noto'g'ri talqin qilishga olib kelmoqda. Bu holatni faqat o'zbek tilshunosligida emas, balki boshqa turkiy tillar toponimlarini tekshirishga bag'ishlangan ishlarda ham kuzatish mumkin. Qoraqalpog'iston toponimlarini tekshirgan Q.Abdumuratov -li // ly qo'shimchasi orqali yasalgan toponimlar sifatida Ashamayli, Bolg'ali, Qazalqi, Cho'michli kabilarni Turkmanistonlik toponimist S.Ataniyazov esa Yilanli, Sayatli; -chi qo'shimchasi orqali yasalgan nomlar qatori Arabachi, Avchi, Paxtachi toponimlarini sanab o'tadi. Toponimlarning ushbu asosida yasaliş bo'yicha qismlarga ajratilishi natijasida Yilanli va Bolg'ali tipidagi toponimlar ikki leksik-semantik gruppaga kiritilmoqda. Ya'ni Yilanli-hayvon nomi asosida vujudga kelgan, Bolg'ali-ish quroli asosida paydo bo'lgan, deyarli turli gruppalarda izohlanmoqda. Aslida bu toponimlar motivlariga ko'ra bir xildir. Chunki Bolg'ali, Yilonli urug' nomlari bo'lib, mazkur territoriyada shu urug'larning yashaganligi natijasida vujudga kelgan. Demak, etnik nom toponimga aylangan. O'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, so'z ilon urug'i haqida emas, ilonli (ya'ni urug' tamg'asida ilon belgisi bor etnik grupp) haqida boryapti. Shunday ekan, ilonli, Bolg'ali toponimlarning motivatsiyasida ilon va bolg'a so'zlarini motivlovchi deb qarash mumkin emas. Bu toponimlarning motivlarini ilonli, Bolg'ali etnonimlari asosida talqin etish to'g'riroqdir.

55

Demak, yuqorida keltirilgan nomlardagi -li // -li, -lik, -chi tipidagi qo'shimchalar toponimik derevat xarakterida emas. Qayd etilgan toponimlarning yasaliş strukturasi ular nolga tengdir. Toponimlar tarkibida uchraydigan bu tipdagi qo'shimchalar leksik-grammatik yasaliş natijasidagina emas, balki boshqa qator sabablar orqali ham sodir

55

Международный научный журнал
«Новости образования: исследование в XXI веке»

№ 13 (100), часть 1
Сентябрь, 2023

bo'ladi. Ko'pincha toponimlarning soddalashuvi jarayonida ayrim komponentlarning tushishi – sintaktik ellipsis orqali ham toponimlar tarkibida nol ko'rsatgichli paydo bo'ladi. Qiyos qiling: Aravachining ovuli – Aravachi ovul- Aravachi; Ko'pchilik mahalla – Ko'pchilik va hokazo. Davr o'tishi bilan toponim tarkibidagi -lik elementi ham tushishi mumkin.

Ba'zan affikslarning polesemantik xarakterda bo'lishi, ularning funksional doirasining nihoyatda kengligi (-chi affiksining ma'nolarini solishtirib), shuningdek, affiksial polesemiyaning affiksial polesemiya aylanishi kabi qator faktorlar ham toponimlar tarkibida nol ko'rsatgichli qo'shimchalarning vujudga kelishiga sabab bo'ladi.

A.V.Superanskaya juda to'g'ri ko'rsatganidek, toponimlar yasashda tildagi barcha so'z yasovchi vositalar ham ishtirok eta olmaydi. So'z yasalişining boshqa usullari kabi toponimik konversiyada ham ma'lum bir qatlamdagi, ma'lum bir semantik xususiyatga ega so'zlargina toponimga aylana oladi, toponim yasashda ishtirok eta oladi. Masalan, kishi nomlari, etnik nomlar, toponimik indikatorlar joy nomlariga aylanishga moyil bo'ladi. Shuning uchun ham onomastik konversiya ko'pincha ichki xarakterda, bir so'z turkumi doirasida va hatto, faqat atoqli otlar doirasida ham bo'lishi mumkin.

Ko'pgina qo'shimchalar garchi toponimlarning yasalişida bevosita ishtirok etmasa ham mazkur so'zning joy nomi (umuman, atoqli ot) ekanligini ko'rsatib turadi, unga ishora etadi. Ko'pchilik hollarda -chi, -lar, -lik, -kash kabi qo'shimchalar shunday xarakterdagi. Ko'pchilik hollarda -chi, -lar, -lik, -kash kabi qo'shimchalarning toponim yasovchi sifatida qaralishining boisi ham shundadir. Ko'rinadiki, toponimlar yasaliş strukturasi bevosita joy nomi yasovchi – toponimik derevat xarakterdagi va ma'lum darajada toponimning mazmun bilan aloqador, unga ishora etadi.



Добавить



Редактировать PDF



Поделиться



В Word



Ещё





Новости_образования _исследование_в_XX...

Теги +



топонимлар yasalishi strukturasi bevosita joy nomi yasovchi – toponimik derevat xarakteridagi va ma'lum darajada toponimning mazmun bilan aloqador, unga ishora etuvchi, toponimlarni farqlovchi va ularni ko'rsatish funksiyasini bildiruvchi elementlarni bir-biridan farqlash lozim. O'zbek tilshunosligida hozirgacha toponim tarkibida ishtirok etadigan va umuman, toponim yasovchi qo'shimchalarni nomlashda affiks, formant, topoferiant va ba'zan sifiks terminlari qo'llanilmoqda.

Ta'kidlaganimizdek, toponimlar tarkibidagi qo'shimchalar ma'nosi va funksiyasi jihatdan bir-biridan farqlanar ekan, ularni terminologik jihatdan ham farqlash maqsadga muvofiqdir. Darhaqiqat, o'zbek tilida -iston, -obod, -kent (kat) tipidagi qo'shimchalar borki, ular doimo joy nomi yasaydi. Shuning uchun bunday qo'shimchalarni toponim yasovchi affikslar (topoaffikslar) deyish o'rinalidir.

-chi, -lar, -zor, -loq tipidagi qo'shimchalar ayrim hollarda toponim yasovchilarga yaqin tursa ham ular ko'pgina xususiyatlari va qo'llanish diapazoniga ko'ra topo. yasovchilardan (topoaffikslardan) farq qiladi. Ular yuqorida qayd qilinganimizdek, o'zlarining ayrim ma'nolari bilan toponimlarga yaqin so'zlar yasaydi. Shuning uchun ham ular, ko'pincha, toponim yasalishi strukturasi obyektini ko'rsatuvchi formal elementga o'xshab qoladi. Bu xildagi qo'shimchalar yasalgan so'zlar jamlik ifodalanishi, inson faoliyati, hunari, mashg'ulotini ko'rsatish kabi bir qator ma'nolari bilan toponimlarga yaqin turadi. Ular toponimik modellarga mos keladi. Shu sababli ham bunday so'zlar boshqa so'zlarga nisbatan joy nomiga aylanishga moyil bo'ladi (qiyos qiling: Ko'rsalar, Olmali kabi). Shuning

57

56

Международный научный журнал
«Новости образования: исследование в XXI веке»

№ 13 (100), часть 1
Сентябрь, 2023

uchun ham bu tipdagi qo'shimchalarni toponimik formant (topoformat) deb atash to'g'riroqdir.

Toponimlar tarkibida uchraydigan ayrim prefikslar derevat xarakteridadir. Jumladan, sar (Sariosiyo – tegirmonboshi), poy – (Poykan – quyi qishloq), pesh (Peshob suv oldi) va hokazo. Bu tipdagi prefekslarning ko'pchiligi boshqa tildan o'tgan bo'lib ularning qo'llanish doirasi cheklangan. Ularga diaxronik planda qaralsa, prefikslar mustaqil so'zga teng.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Бегалиев Н. Топонимларнинг ўзбек халқ этногенезидаги ўрни // Ўзбек тили ва адабиёти. – 2004. – 4-сон. – Б. 67-71.
2. Дарбакова В.Г. К этимологии этнонима – қалмык // Этнонимы. – М.: 1970. – С.265-268.
3. Муҳаммаджонов А. Работ атамаси этимологияси // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1995. – 2-сон. – Б.43-45.
4. Эназаров Т.Ўзбекистондаги баъзи топонимларнинг этимологик талқини. – Т., 2004. – Б.4.
5. Дўсимов З., Эгамов Х. Жой номларининг қисқача изоҳли лўғати. –Т.: Ўқитувчи, 1977. – Б.48.
6. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик лўғати (туркий сўзлар). – Т.: Университет, 2000. – Б.31-32.



Добавить



Редактировать PDF



Поделиться



В Word



Ещё





Новости_образования
_исследование_в_XX...

Теги +



НАУЧНЫЙ
ИМПУЛЬС
ЦЕНТР НАУЧНОЙ
ПОДДЕРЖКИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ СОВРЕМЕННЫЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ

НОВОСТИ ОБРАЗОВАНИЯ: ИССЛЕДОВАНИЕ В XXI ВЕКЕ



Последние
взгляды

Последние
данные

Последние
исследование

И НОВОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

Международный научный журнал
«Новости образования: исследование в XXI веке»

№ 13 (100), часть 1
Сентябрь, 2023



Добавить



Редактировать PDF



Поделиться



В Word



Ещё

